



THE ROLE OF NETIQUETTE IN BEHAVIOR WITHIN THE INFORMATION SPACE

Baxriddin Abdiraxmonovich Primov

Acting Associate Professor, Department of Philosophy

Tashkent State University of Economics

Email: baxriddinprimov57@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: includes concepts such as information culture, working with information, communication, ethical norms on the Internet, forums, group chats, content etiquette, moral purity.

Received: 25.08.25

Accepted: 26.08.25

Published: 27.08.25

Abstract: This article highlights important ideas about the fact that in a digitalizing society, it is necessary to pay attention not only to working with information and data through technical means, but also to spiritual and moral values. It also emphasizes that developing a culture of communication in the global Internet and explaining its role as the most powerful means of influence should be considered one of today's most urgent tasks.

AXBOROT MAYDONIDAGI XATTI-HARAKATLARDA NETIKET O'RNI

Baxriddin Abdiraxmonovich Primov

Falsafa kafedrasi v.b., dotsenti

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Gmail: baxriddinprimov57@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: axborot madaniyati, axborot bilan ishlash, muloqat qilish, internetda axloq meyorlar, forumlar, guruhli chatlar, kontent odobi, axloqiy poklik.

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamlashib borayotgan jamiyatda axborot va ma'lumotlar bilan faqat texnik vositalar orqali ishlash emas balki, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga ham e'tibor qaratish haqida muhim fikrlar yoritilgan. Shuningdek, global internetda muloqat qilish madaniyatini shakllantirish, eng kuchli ta'sir vositasi ekanligini tushuntirib berish, bugungi kunning dolzarb vazifa deb hisoblaymiz.

ВЛИЯНИЕ ПРАВСТВЕННЫХ И ПРАВОВЫХ НОРМ НА ГЕНДЕРНОЕ ПОВЕДЕНИЕ

Бахриддин Абдирахмонович Примов

И.о. доцента кафедры философии

Ташкентский государственный экономический университет

Эл. почта: baxriddinprimov57@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: информационная культура, работа с информацией, общение, нормы морали в интернете, форумы, групповые чаты, этика контента, нравственная чистота.

Аннотация: В данной статье изложены важные идеи о том, что в цифровизирующемся обществе необходимо обращать внимание не только на работу с информацией и данными посредством технических средств, но и на духовно-нравственные ценности. Также подчёркивается актуальность формирования культуры общения в глобальном интернете и объясняется, что это является одним из самых мощных инструментов воздействия.

Kirish. Bugungi globallashuv va axborotlashgan davrda raqamlashish jarayoni tobora kundan-kunga kengayib oʻzining yuqori natijalarini jamiyatga taqdim etmoqda etmoqda. Kundalik hayotimizda informatsion texnologiya va internet orqali muloqot qilish, yangiliklar olish insoniy ehtiyojlarimizning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ammo, bu jarayonlar bizdan amal qilishimiz lozim boʻlgan texnik koʻnikmalarni, balki maʼnaviy-axloqiy qadriyatlarga ham amal qilish zarur jihatlarni ham taqozo etmoqda. Shaxs uchun axborot makonida toʻgʻri xatti-harakat, hulq-atvorni belgilovchi va anglatuvchi muhim tushuncha bu-netiketdir. Ushbu maqolada yuqorida taʼkidlanganidek, axborotlashgan davrda netiket tushunchasining oʻrni va ahamiyatiga toʻxtalib oʻtamiz hamda yoritib beramiz.

Adabiyotlar tahlili. Axborot makonida inson xatti-harakati va hulq-atvorni belgilavchi netiketning oʻrnini aniqlashga baʼzi olimlar eʼtibor qaratishgan. Jumladan, AQShlik olim va yozuvchi ilk bor Virginia Shea 1994 yil “Netiquette” nomli kitob taqdim etgan va unda interndandagi hulq-atvor qoidalarini yoritib bergan [2]. Shuningdek, Malayziyolik tadqiqotchi Suraya Hamid 2010 yilda oʻzining “Internt axloqi” mazusida yozilgan maqolasida toʻxtalib oʻtilgan [3]. Shu bilan birga, Islom Karimovning “Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch” kitobida taʼlim-tarbiya va maʼnaviy jarayonlarda ham OAV oʻrni beqiyosli haqida toʻxtalib oʻtilgan. Netiketni tushunchasining muhim jihati shundaki, bu global axborot maydonidagi axloqiy madaniyatining ajralmas qismi balki, bugungi va ertangi kunimiz uchun ham oʻrganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarbdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda yuqorida keltirilgan maqola nomlanishidan kelib chiqib, global internet foydalanuvchilarning xatti-harakatlari va hulq-atvorni belgilashda netiketning o'рни hamda ahamiyati ilmiy nazariy jihatdan o'rganildi. Avvalo, buni o'rganishda milliy va xorijiy adabiyotlar tahlil olib borildi, olimlar va tadqiqotchilar qarashlari o'rganildi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar, kanallar, saytlar, turli chatlardagi foydalanuvchilarning yozishmalari kuzatildi, internetdagi axloqsiz video rolik taqdim etuvchi guruhlar faoliyatidagi muloqatlar asosida so'rov va suhbatlar o'tkazildi. Olingan natijalar ilmiy tadqiqotlar doirasida taqqoslandi va umumlashtirilib xulosalar ishlab chiqildi. Olib borilgan tadqiqot natijalari insonlar hayotidagi netiket (xatti-harakatlari va hulq-atvor)ni onlayn kuzatishni va metodologik jihatdan tahlil orqali ushbu maqolani yoritishda xizmat qildi.

Tahlil va natijalar. Axborotlashgan jamiyatda raqamlashish jarayoni izchillik bilan davom etar ekan, uni izlash, qayta ishlash, tarqatish, saqlash, baham ko'rish va muhokama qilish bu axborot bilan bog'liq faqat texnik vosita emas, balki sof insoniy shuningdek, ma'naviy-axloqiy me'yorlar va qoidalar hamda qadriyatlar talab etadi. Shu bilan birga internetda hamda onlayn platformalardagi muloqatlarda madaniyat - "netiket" (inglizcha so'zdan "network" (tarmoq) va "etiquette" (odob-axloq qoidalari) so'zlaridan tuzulgan) tushunchasi bilan ifodalanadi [1].

Demak, netiket tushunchasi — bu bugungi kunda internet turli kanallar va onlayn platformalardagi foydalanuvchilarning hulq-odobini, tabiyasidagi xatti-harakatini tartibi belgilovchi etik va axloqiy me'yorlar majmuasidir. Bu, avvalo, ijtimoiy tarmoqlar, ko'gil ochar shoularda, elektron kontentlar (sharhlar)da, guruhli chatlar, video bloglar va boshqa raqamli muloqotlarida o'zaro hurmat hamda e'tibor asoslangan pok axloqiy mas'uliyat, shaxsiy muomala madaniyatidagi tamoyillarini belgil beradi.

Netiket quyidagi asosiy tamoyillar bilan o'zaro bog'liq bo'lib:

O'zga insonlarni hurmat qilish, fikrini kamsitmaslik, salbiy qarashlarni shakllantirmaslik va adovat qilmaslik;

Onlayn makonda fikr va izoh qoldirishda etik yozish (chiroyli so'zlar tanlash, imlo, tinish belgilariga e'tibor berish) qoidalariga amal qilish;

Shaxsiy yoki maxfiy ma'lumotlarni bo'yicha muloqat almashmaslik;

Bosh harflarda bilan yozmaslik (bu buyruq va ovozni ko'tarib gapirish sifatida qabul qilinadi);

Ijtimoiy tarmoqlar, turli kanallardagi platformalarda jargon, bosim o'tkazuvchi, haqoratli va behayo so'zlardan foydalanmaslik;

Internetdagi onlayn platformalarda madaniyatini shakllantirishning asosiy muammolaridan biri — nomsiz (anonim)lik ortida mas'uliyatsizlik va tahqirlash holatlariga qarshi kurash choralari yotadi [2].

Global axborotlashgan jamiyatda netiket raqamli savodxonlik bevosita bog'liq bo'lib, insonlardan onlayn ma'suliyat hamda faollik, tanqidiy mushohada va axborot kibet xavfsizligi bilan bog'liq jarayonlarni ham o'z ichiga oladi. Ayniqsa, oilada yoshlikdan berilayotgan tarbiya o'smirlar orasida internet tarmoqlaridagi anonimlik holatida yaqqol namoyon bo'ladi. Shu bilan birga jamuyatdagi ko'rinmas hulq-atvorni yuzga chiqadi va bunga baho berish imkonini yaratadi. Shuning uchun ham jamoat onlayn platformalarida o'zini tutish odobi va axloqiy me'yorlarini shakllanishda netiket tamoyillarini bilish hamda o'rgatish zarur tarbiyaviy vazifalardan biri hisoblanadi.

Bundan ko'rinadiki netiket asosida insonlardagi axloqiy qadriyatlarning onlayn makondagi ma'naviy-madaniy hulq-atvor odobi me'yorlari buzmaslik va salbiy jihatlarini ko'rsatmaslikni o'z ichiga oladi. Netiket global internetdagi onlayn makonida ma'naviy-axloqiy va madaniy muloqot uzviy bog'liqda rivojlantirib jamiyatda ijobiy tomonlama ijtimoiy muhit yaratishga xizmat qiladi[3]. U hurmat-izzat, odob-axloq va mas'uliyat talab etib sof insoniy qadriyatlarni virtual olamda yoritilishini ko'rsatib turadi. Yana ayni damda bunga qarama-qarshi turuvchi yangi tushuncha paydo bo'lishiga olib keldi. Bu antinetiket yoki netiketsizlik kabi tushunchalarning yuzaga keltirdi. U insonda moddiylik yani nafs ustunligini ta'minlanishiga insofsizlik, o'zgalar haqqidan qo'qmaslik, yolg'on va tuxmat xabarlar tarqatish, shaxsiy ma'lumotlardan foydalangan holda onlayn malinformatsion (zarar etkazishga mo'ljallangan) daxlsizlikni buzish kabi salbiy shantaj xatti-harakatlarda namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, internetdagi instagram dunyosiga bir boqsangiz budan 20 va 30 yil oldin uyaladigan ishlardan hozirda faxirlanish holatlarini ko'rayapmoqda. Bu yuzsizlik bulan ko'satishyapdi va behayolik tag'ib qilishyapdi. Milliy axloqiy va diniy qadriyatlarimiz toptalyapdi. Video roliklardagi ochiqlik va oshkorolik oddiy holatga aylanib qolmoqda. Moddiy hayotdagi ustunlik sifatida baholanmoqda. Bularning barchasi oriyatli insonlarni ta'ajubga solmoqda. Qarshi fikr bildirganlarni va izoh qoldirganlarni radikal sifatida e'tirof etishmoqda [4;34].

Ba'zilar netiketni ortiqcha cheklov sifatida ko'rivchilar ham topiladi, chunki internet erkinlik maydoni bo'lib, odamlar o'z fikrini hech qanday chegaralarsiz ifoda etishi kerak deb hisoblaydi. Shu nuqtai nazardan, netiket qoidalariga amal qilish insonning erkin so'zlash huquqini qisqartiradi, deb qarashadi. Yana bir qarshi fikr shuki, netiket barcha uchun majburiy bo'la olmaydi, chunki internetda turli madaniyat, turli dunyoqarash va turli axloqiy me'yorlarga ega insonlar bor va qadriyatlar bor. Demak, umumiy qoida hamma uchun to'liq mos kelmasligi

mumkin. Bundan tashqari, ayrimlar netiketning nazoratini amalga oshirish mushkul deydi, ya'ni real hayotda qoidabuzar jazolanishi mumkin, lekin internetda bunday mexanizm zaif. Shu sababli netiketni faqat nazariy tamoyil sifatida ko'radiganlar ham bor.

Ammo bunday qarshi fikrlarni izohlashda muhim jihat shundaki, ular netiketning axloqiy qadriyatlar emas, balki cheklovchi qoidalar sifatida noto'g'ri talqin qilinishidan kelib chiqadi [5]. Aslida netiket inson erkinligini emas, balki uning hurmatini va muloqot madaniyatini himoya qiladi.

Ba'zida bu ikki netiket va antinetiket tushunchasi bir-biriga zid bo'lsa-da, ijtimoiy hayot va ilmiy tomondan ularni o'zaro taqqoslash virtual muhitda axloqiy tamoyillar orqali mushohida qilish hamda qiyoslash zarurligini ko'rsatadi. Zero, netiketga amal qilish nafaqat individual darajada muloqot madaniyatini yuksaltiradi, balki jamiyatda sog'lom axborot muhitini ta'minlashning ham muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Axloqiy jihatdan e'tibor qaratsak, netiket insonlar o'rtasida ijobiy muhit yaratish, ma'naviy-axloqiy asoslangan me'yorlar muloqotni rivojlantirish, yoshlarning zehniyatidagi tafakkurni takomillashtirishva mas'uliyatli bilan internetdan foydalanish ko'nikmalarini sakllantirish vosita hisoblanadi. Demak, netiket shunchaki texnik informatsion onlayn talab emas, balki yuksak axloqiy qadriyatlarni internet makoniga namoyon etish vositasi hamdir. Suning uchun ham axborot axloqni boyitishin va unga xizmat qilish zarur.

Xulosa va takliflar. Muxtasar qilib aytganda bugungi global axborot makoniga jarayonlarga panja orasidan texnik vosita sifatida emas balki, real kundalik hayotiy bo'layotgan holatlarning aksi sifatida qarashimizni talab etadi. Axborot kunlik ehtiyojimizga aylangan ekan u bizning ongimiz va tafakkurimizni sakllantirayotgan shubha yo'q. Demak har birimiz avvalo, o'zimizni-o'zimiz milliy va axloqiy qadriyatlarga xos tarzda isloh qilib borishimiz, atrofimizda va inrernet tarmoqlaridagi tarqatilayotgan har qahday axloqsiz hamda behayo holatlarga nisbatan tanqidiy fikrada bo'lishimiz lozim. Shu bilan birga, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga asoslangan immunitetimizni har qachongidan ham boyitib borishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mason R. (1997). The Internet and Netiquette. Routledge. – Netiketning nazariy asoslari va amaliy qo'llanilishi.
2. Shea V. (1994). Netiquette. Albion Books. – Internet muloqot odoblari haqida ilk asarlardan biri.
3. Hamid S. (2010). Ethics and Netiquette in Online Communication. Journal of Information Ethics, 19(2), 45–52. – Onlayn muloqotdagi axloqiy muammolar.

4. Crystal D. (2006). Language and the Internet. Cambridge University Press. – Internet tilining madaniy va axloqiy jihatlari.
5. Tapscott D. (2009). Grown Up Digital: How the Net Generation is Changing Your World. McGraw-Hill. – Yangi avlod va internetdagi muloqot madaniyati.
6. Turkle S. (2011). Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other. Basic Books. – Internet ijtimoiy-axloqiy munosabatlarga ta'siri haqida.
7. Uzbekova G. (2020). “Raqamli makonda muloqot madaniyati va netiketning o'rni.” Axborot texnologiyalari jurnali, №3, 56–62.
8. Primov B. (2024). Axborotlashgan davrda axloqiy qadriyatlar. Falsafiy tadqiqotlar va ijtimoiy fanlar jurnali, 4.-B.143-148.
9. Primov B. (2024). “Axborotlashgan davrda axloqiy qadriyatlar yemirilishi”. Sharq tarixi, siyosati va huquqi jurnali, 4. 286-292.
10. Primov B. (2024). “Axborot asrida kiber informatsion xavsizlik” O'zMU xabarlar jurnali. – B.147-149.
11. Primov B. (2024). Axborot jadallashuvi davrida postmodernizm” Falsafa va huquq jurnali, 3. 84-87.
12. Primov B. (2025). “Axbortlashgan jamiyatda sun'iy intellekt va axloq” “Sun'iy intellekt rivojining dunyoqarash ufqlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. -B. 312-317.